



TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2025-YIL YANVAR-FEVRAL (DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi
boshqarmasi
Tel.: 71-203-80-03 (35 10)

Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2025 - yil yanvar-fevral oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-fevral oylarida shahar korxonalarini tomonidan 21,0 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yanvar-fevral oylarida nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (74,1%)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 15,6 trln.so'mni tashkil etdi.




B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 9,9% ga, Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 1,6 % ga o'sishi kuzatildi. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 6,2 % ga, tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 8,9 % ga kamaygan.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,5 trln so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 16,6 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-fevral oylarida, % da)



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Gaz kondensati




Tabiiy gaz



Neft




Chaqiq tosh



Togʻ- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral	2025-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Neft, ming t.	100,5	90,0	-10,5
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	5385,7	5244,5	-141,2
Gaz kondensati, ming t.	121,7	107,3	-14,4
Chaqiq tosh ming t.	12,6	42,8	30,2

Ishlab chiqaradigan sanoat




2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,6 trln.soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 109,9 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (2025- yil yanvar-fevral oylarida % da)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 3,5% ni (2024-yilning yanvar-fevral oylarida – (5,6%), o'rta-yuqori texnologiyali – 21,8 % (24,3%), o'rta-quyi texnologiyali –36,0 % (31,5%) va quyi texnologiyalisi – 38,6 % (40,3%)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,4 % (2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,2 %), mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 19,5 % (2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 14,4 % (2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,0 % (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,9 % (2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 137,1 %) ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2025-yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 1582,4 tonna Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar (128,1 % ga oshgan), 5894,5 tonna paxatadan yigirilgan ip (75,6 % ga oshgan), 153 ming dona Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar (2,3 martaga oshgan)

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar



Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar




Yumshoq bug'doy va spelta uni




Pivo



Aroq



Uzum vinosi



Tamaki mahsulotlari



Paxtadan yigirilgan ip




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral	2025-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna.	1 235,4	1 582,4	347,0
Paxtadan yigirilgan ip, ming tonna.	7 801,9	5 894,5	- 1 907,4
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar - tonna.	2 337,3	2 882,6	545,3
Pivo – mln litr	10 658,5	9 406,9	- 1 251,6
Sovutgich va muzlatgichlar - ming dona	43 300,0	52 247,0	
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	577,1	461,8	- 115,3
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, tonna	2 108,2	2 190,4	5,0

Metallurgiya sanoati (yanvar-fevral oylarida)



FHI
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati ulushi 17,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 124,7% ga ko'paygan bo'lsa,

2025-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 19,4% ni tashkil qilib, fizik hajm indeksi esa, 102,5 va ishlab chiqarish hajmi 3030,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (yanvar-fevral oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-fevral oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 56,8% ga oshgan,

2025-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 117,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 675,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



FHI
% da



Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(yanvar-fevral oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,5% ni, uning fizik hajm indeksi esa 99,4 % ni tashkil etgan bo'lsa,

2025-yilning yanvar--fevral oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 14,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 113,0% ni va ishlab chiqarish hajmi 2217,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
% da



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-fevral oylarida)

FHI
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,4% ni, uning fizik hajm indeksi esa 26,2% ga oshgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,3% ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 80,3% ni va ishlab chiqarish hajmi 1765,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-fevral oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,0% ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 88,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2025- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,2% ni tashkil etib, fizik hajm indeksi 118,0% ga tashkil qilib, ishlab chiqarish hajmi 807,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

FHI
% da




Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-fevral oylarida)



FHI
% da



2024-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 80,9% ni tashkil etgan bo'lsa,


2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 107,5% ni, ishlab chiqarish hajmi esa 214,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar-fevral oylarida)

2024-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 101,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1% ni, fizik hajm indeksi 12,2 % ga oshdi, ishlab chiqarish hajmi esa 476,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
% da



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar-fevral oylarida)




2024-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 25,2% ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5% ni, fizik hajm indeksi 69,2 % ga ko'paygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 80,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar-fevral oylarida)



2024-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,6% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 67,3% ga oshgan.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 101,5% ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 812,5 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(yanvar-fevral oylarida)

2024-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, rezina va plast-massa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 114,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,6% ni, fizik hajm indeksi 160,1% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 556,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.




**FHI
% da**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

(yanvar-fevral oylarida)



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1728,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,2% ini) tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 93,8% ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar-fevral oylarida, % da)




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral	2025-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	706.3	652.7	-53.6
Issqlik energiyasi, ming gkal	2818.1	2597.1	-221.0
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, mln so'm.	120.3	331.4	18.0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

(yanvar-fevral oylarida)



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,4 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6% ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar-fevral oylarida, % da)



Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral	2025-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	59,8	64,3	4,4
Xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy, tonna	33,9	28,1	-5,8
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	98,4	95,9	-2,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 164,9% ga, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 107,4 % ga o'sish kuzatildi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 97,4 %ni tashkil etdi.

**Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi
tashkil etilgan sanoat korxonolari**
(2025-yil 1-mart holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 10,8 mingta sanoat korxonolari faoliyat ko'rsatmoqda.

2025-yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent shahrida 256 ta yangi sanoat korxonolari tashkil etildi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 203-88-16